

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVASIYALAR VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOGLIKNI SAQLASH VAZIRLIGI
ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI
UMUMIY JARROXLIK VA TRANSPLANTOLOGIYA KAFEDRASI**

“TASDIQLAYMAN”
ADTI rektori **M. M. Muzayimov**
“ 2025 yil



**«UMUMIY XIRURGIYA»
FANI O'QUV DASTURI**

Bilim sohasi: 900000 -Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot
Ta'lim sohasi: 910000 – Sog'liqni saqlash
Ta'lim yunalishi: 60910300 – Pediatriya ishi

Andijon 2025 yil

Fan/modul kodi UX15-606	O'quv yili 2025-2026	Semestr 5-6		Kreditlar 6	
Fan/modul turi: Majburiy	Ta'lim tili: O'zbek/Rus/Ingliz			Xaftadagi dars soatlari 3	
Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Ma'ruza (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)	
Umumiy xirurgiya	90	24	90	180	

I. Fanning mazmuni.

Fanning o'qitishdan maqsad - jarrohlikda antiseptika va aseptika, xirurgik infeksiya haqida tushuncha, uni oldini olish muommolarini, yiringli infeksiya turlarini (yuzaki joylashgan yiringli kasalliklar), shoshilinch jarrohlik holatlarida birinchi yordam ko'rsatishni (qon ketishni to'xtatish, bog'lam qo'yish, jarohatlanganlarni immobilizatsiya va transortirovka qilish) o'rgatishdan iborat.

Fanning vazifalari:

- talabalarning jarrohlikda antiseptik moddalarni qo'llash;
- qon ketishi va uni to'xtatish usullari;
- qon va uning o'rnini bosuvchi eritmalarni qo'yish qoidalari va texnikasi hamda donorlik bilan tanishtirish;
- jarrohlik infeksiyasi haqida tushuncha berish;
- xirurgik amaliyotiga bemorni tayyorlash va operatsiyadan so'nggi davrda uni to'g'ri parvarish qilish usullarining asoslarini o'zlashtirish.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

№	Ma'ruzalar mavzulari
5 - semestr	
1.	Zamonaviy xirurgiyani rivojlanish tarixi. Aseptika va antiseptika.
2.	Qon ketishi va qon yo'qotish.
3.	Transfuziologiya asoslari.
4.	Xirurgik bemorlarni tekshirishni asosiy qoidalari. Xirurgik operatsiyalar.
5.	Transplantologiya, endovizual, robototexnika va gibrid operatsiyalar asoslari, kelajakdagi o'rni va ahamiyati

№	Ma'ruzalar mavzulari
6.	Shikastlanish asoslari. Qorin bo'shlig'ining shikastlanishi. Jigar va taloqning shikastlanishi. Ko'krak qafasining shikastlanishi. Yurak va o'pkaning shikastlanishi. (Al-Farobiy nomidagi Qozog'iston milliy universiteti, #230)
6 - semestr	
7.	Kuyish va sovuq urish. Kuyish kasalligi. Kuyish shoki. (Al-Farobiy nomidagi Qozog'iston milliy universiteti, #230)
8.	Yumshoq tuqimalar nospetsifik xirurgik infeksiyasi
9.	Suyak, pay va bo'g'imlar xirurgik infeksiyasi. Anaerob va o'tkir spetsifik xirurgik infeksiyasi.
10.	Umumiy xirurgik infeksiya (sepsis). Surunkali va parazitar xirurgik infeksiyasi
11.	To'qimalar o'limi. Oyoqlarning tomirlarining turli kasalliklarini (ateroskleroz, endoarteriit, teri osti venalarining varikoz kengayishi, tromboflebit, flebit) tashxislash va davolashning zamonaviy usullari. Rentgenendovaskulyar xirurgiya asoslari/ (Al-Farobiy nomidagi Qozog'iston milliy universiteti, #230)
12.	Xirurgik yordamga muhtoj bo'lgan tug'ma nuqsonlar. Plastik va estetik xirurgiya asoslari.
JAMI:	

III. Amaliy mashg'ulot bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

Fan bo'yicha mashg'ulotlar 50% nazariy (ma'ruza va amaliy mashg'ulot) va 50% amaliy qism (o'quv klinik amaliyot)dan iborat bo'lgan holda o'tkaziladi. Amaliy mashg'ulotning nazariy va amaliy qismi o'zaro bog'liq holda o'tkaziladi.

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

№	Amaliy mashg'ulotlarning mavzulari va mazmuni
5 semestr uchun	
1.	Kontakt infeksiyasini oldini olish usullari.
2.	Mexanik va fizik antiseptika usullari.
3.	Kimyoviy, biologic va aralash antiseptika usullari.
4.	Desmurgiya.
5.	Qon ketishi va qon yo'qotish.
6.	Qon ketishni vaqtincha va batamom to'xtatish usullari.
7.	Qon va qon o'rnini bosadigan suyuqliklar qo'yish
8.	Transfuziologiya asoratlari, ularni tashxislash, davolash va oldini olish usullari
9.	Xirurgik bemorlarni tekshirish asosiy qoidalari. Xirurgik bemorlarni tekshirish qo'shimcha usullari.

№	Amaliy mashg'ulotlarning mavzulari va mazmuni
10.	Xirurgik bemorlarni davolash bosqichlari Bemorlarni kurasiya. Akademik xirurgik kasallik tarixini yozish.
11.	Xirurgik operatsiyalarni o'tkazish qoidalari.
12.	Operatsiyadan oldingi davr. Bemorlarni operatsiyalarga tayyorlash usullari
13.	Operatsiyadan so'ngi davrda bemorlarni davolash va parvarish qilish.
14.	Endovizual, robototexnika va gibrid operatsiyalar asoslari. Xirurgiyada kichik invaziv aralashuvlar. Endovideojarrohlik operatsiyalari: NOTES, SILS (Davlat nomi: Moskva, RF; ta'lim muassasi nomi: M.V.Lomonosov nomli MDU; reytingdagi o'rni: 87)
15.	Transplantologiya asoslari.
6 - semestr	
16.	Yumshoq to'qimalarni yopiq shikasti. Chayqalish. Lat eyish. Yirtilish va uzilish. Ezilish
17.	Travmatik toksikoz.
18.	Yumshoq to'qimalar ochiq shikasti (jarohatlar to'g'risida ta'lim). Jarohatlar tasnifi. Jarohatning bitishi
19.	Bosh, ko'krak qafas va qorin shikastlari.
20.	Suyaklar sinishi va bo'g'imlar chiqishi. Transport immobilizatsiyasi. Yatrogeniya.
21.	Termik shikastlanishlar. Elektrotravma. Sovuq urish.
22.	Yumshoq to'qimalar xirurgik infeksiyasi. Yumshoq to'qimalarni turli sohalarda joylashgan xirurgik infeksiya. Zamonaviy jaroxat qoplamalari (Davlat nomi: Moskva, RF; ta'lim muassasi nomi: M.V.Lomonosov nomli MDU; reytingdagi o'rni: 87)
23.	Suyak va bo'g'imlar xirurg ikinfeksiyasi. Kaft-barmoqlar xirurgik infeksiyasi.
24.	O'tkir anaerob xirurgik infeksiya.
25.	Ko'krak qafasi va qorin bo'shlig'I xirurgik infeksiyasi.
26.	Umumiy xirurg ikinfeksiya.
27.	O'tkir va surunkali spetsifik xirurg ikinfeksiya. Parazitar xirurgik infeksiya.
28.	To'qimalar o'limi. Qon aylanishning o'tkir buzilishi.
29.	Qon tomirlar obliteratsiyalanuvchi kasalliklari. Yumshoq to'qimalar mikrotsirkulyator qon aylanishini buzilishi. Kam invaziv kardioxirurgiya (Davlat nomi: Moskva, RF; ta'lim muassasi nomi: M.V.Lomonosov nomli MDU; reytingdagi o'rni: 87)
30.	Xirurgik yordamga muhtoj bo'lgan tug'ma nuqsonlar

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:

Amaliy mashg'ulotlar multimediya qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkaziladi.

Amaliy mashg'ulotlar 50% nazariy va 50% klinik o'quv amaliyotidan iborat. Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilinadi:

- Amaliy mashg'ulotlarni maqsadini aniq belgilab olish;
 - O'qituvchining innovatsion pedagogik faoliyati bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish imqoniyatlariga talabalarda qiziqish uyg'otish;
 - Talabada natijani mustaqil ravishda qo'lga kiritish imqoniyatini ta'minlash;
- Talabani nazariy-metodiq jihatdan tayyorlash va h.k.

Klinik o'quv amaliyotni tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:

Talabalarning o'quv klinik amaliyoti kafedraning klinik bazalari bo'limlarda o'tkaziladi. Amaliy mashg'ulotda amaliy ko'nikmalarga o'rgatish jarayoni batafsil rejalashtiriladi va 3 bosqichni o'z ichiga oladi:

1. Kirish qismi – mashg'ulotning maqsadi va vazifalari aniqlanadi, o'rganilayotgan ko'nikmadan foydalanishning motivatsion asosi, uning nazariy jihatlari muhokama qilinadi. Agar texnik vositalarni qo'llash talab etilsa (pikfloumetr, spiroanalizator, tonometr, otoskop, oftalmoskop va sh.o'.), unda ularning ta'sir mexanizmi, qo'llash texnikasi tanishtiriladi.

2. Ko'nikmani namoyish qilib berish va ko'p marta mashq qilish – bunda ko'nikmani bosqichlarga to'g'ri taqsimlashga alohida e'tibor qaratiladi. Teskari aloqani olgunga qadar, ya'ni o'rganayotgan shaxs mustaqil, biroq pedagog nazorati ostida bajara olganda, ko'nikmani bajarishning barcha bosqichlarini umumlashtirish, o'zaro bir-birida ko'p marta mashq qilish va faqat ko'nikmaga ega bo'lgandan so'ng bemorda qo'llaguncha, har bir bosqichni taxlili namoyish qilinadi.

3. Xulosa – o'rganayotgan shaxs bilan ushbu ko'nikmaning ahamiyatini muhokama qilish va uni turli vaziyatlarda qo'llash. So'rov asosida birlamchi bo'g'inning o'maqsadi va vazifalariga erishilganligiga ishonch hosil qilish. O'qitish jarayonida yuzaga kelgan muammolarni aniqlash va hal qilish.

Talabalarga bajarilayotgan amallar algoritmi mavjud bo'lishi lozim (kafedraning uslubiy qo'llanmasida kasbiy yo'riqnomalar batafsil yoritilgan, o'quv xonasi devoriga sxema ko'rinishida osib qo'yilgan bo'lishi lozim). O'qituvchi nazorat qiladi va kerak bo'lganda talabalar ishidagi xatoliklarni to'g'rilaydi. Talaba, uning xatosi nimada ekanligini, o'qituvchiga va boshqa talabalarga tushuntirib beradi va so'ngra muolajani takrorlaydi. Interfaollik shunda namoyon bo'ladiki, bunda boshqa talabalar ekspert sifatida chiqishga va o'qitilayotgan talabaning amaliy ko'nikmani to'g'ri o'zlashtirganligini baholashga tayyor bo'lishlari lozim. Mashg'ulot so'nggida o'qituvchi har bir talabaning amaliy ko'nikmani o'zlashtirganlik darajasini baholaydi. Talaba amaliy ko'nikmani o'zlashtira olmagan vaziyatlarda, mashg'ulotdan tashqari vaqtda mustaqil o'zlashtirish tavsiya etiladi.

Modul davomida egallanadigan amaliy ko'nikmalar ro'yhati:

1. Qo'llarni oqar suv ostida yuvishtexnikasi
2. Steril xalatni kiyish bosqichlari

3. Steril qo'loqlarni kiyish bosqichlari
4. Rumolli bog'lamlar qo'yish texnikasi bosqichlari
5. "Chepes" bog'lami: ko'rsatmalar va qo'yish ketma ketligi.
6. Gippokrat qalpoqchasini qo'yish texnikasi
7. Yugansimon bog'larni qo'yish texnikasi
8. Barmoq bilan qon tomirlarni bosib qon to'xtatish sohalari
9. Esmarx jgutini qo'yish texnikasi
10. Yumshoq to'qimalar yopiq shikastlanganda birinchi yordam bosqichlari
11. Amaliyotdan oldingi davrda bemorni amaliyotga tayyorlash texnikasi.
12. Tozalovchi klizma texnikasi.
13. Gemostaz usullari: Qon ketishini to'xtatish uchun ligatura, elektrokoagulyator va gemostatik vositalardan foydalanish.
14. Operatsion maydonni tayyorlash
15. Qon ketishini boshqarish: Travma yoki ichki qon ketish holatlarida tezkor choralar ko'rish.

Ushbu amaliy ko'nikmalarni bajarishda va o'zlashtirishda Germaniyaning "Lecturio GmbH" meditsina saytidan foydalanish tavsiya etiladi.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

№	Mustaqil ishlarning mavzular ro'yxati
5-semestr	
1.	Zamonaviy xirurgik asboblar
2.	Zamonaviy tikuv materiallari
3.	Zamonaviy fizik antiseptika usullari
4.	Mahalliy gemostaz uchun zamonaviy dori-vositalar
5.	Gibrid operatsiyalar
6.	Suyak sinishlarda zamonaviy davolash usullari
7.	Kuyish kasalligi
8.	Qandli diabetli bemorlarda yumshoq to'qimalar xirurgik infeksiyasini davolash usullari
9.	Sepsisning zamonaviy tasnifi
10.	Arterial qon tomirlarni surunkali obliterasiyasida zamonaviy davolash usullari
11.	Ichak oqma yaralarni bartaraf qilish usullari
12.	Oshqozon raki kasalligi
13.	Jarrohlikda qon ivishini boshqarishning farmakologik usullari
14.	Transplantologiya
15.	Kam invaziv kardioxirurgiya

№	Mustaqil ishlarning mavzular ro'yxati
6-semestr	
1.	Surunkali jarrohlik infeksiyani davolashning zamonaviy usullari
2.	Yiringli kasalliklarni davolashda efferent terapiya usullari
3.	Seroz bo'shliqlarning yiringli kasalliklarini davolashda minimal invaziv aralashuvlar
4.	Endovideojarrohlik operatsiyalari: NOTES, SILS
5.	Zamonaviy jaroxat qoplamalari
6.	Jarrohlikda biomateriallar va implantlardan foydalanish
7.	Umumiy jarrohlikda telemeditsina va masofaviy monitoringning o'rni
8.	Umumiy jarrohlikda 3D vizualizatsiya va tasvirlash texnologiyalari
9.	Tibbiy xodimlar uchun jarrohlikdagi xavf-xatarlar va ularni boshqarish
10.	Jarrohlikda sun'iy intellektning qo'llanilishi
11.	Xirurgiyada kichik invaziv aralashuvlar (Davlat nomi: Seoul, South Korea; ta'lim muassasi nomi: Yonsei University; reytingdagi o'rni:56)
12.	Xirurgiyada to'qimalarni regeneratsiya qilish texnologiyalari (Davlat nomi: Seoul, South Korea; ta'lim muassasi nomi: Yonsei University; reytingdagi o'rni:56)
13.	Bariatrik xirurgiya (Davlat nomi: Seoul, South Korea; ta'lim muassasi nomi: Yonsei University; reytingdagi o'rni:56)
14.	Xirurgiyada robototexnika (Davlat nomi: Seoul, South Korea; ta'lim muassasi nomi: Yonsei University; reytingdagi o'rni:56)
15.	Plastik, estetik va rekonstruktiv xirurgiya asoslari (Davlat nomi: Seoul, South Korea; ta'lim muassasi nomi: Yonsei University; reytingdagi o'rni:56)

Umumiy xirurgiya fani bo'yicha tavsiya etilayotgan mustaqil ishlar modul tizimida turli xil shaklda amalga oshiriladi:

- berilgan mavzu bo'yicha axborot (referat) tayyorlash;
- modulning bo'limlari yoki mavzulari ustida maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha ishlash va ma'ruzalar qilish;
- ilmiy maqola, anjumanga ma'ruza tezislarini tayyorlash;
- vaziyatli va muammolarga yo'naltirilgan vaziyatli masalalar yechish;
- keys (real vaziyatlar va vaziyatli masalalar asosida case-study) yechish;
- grafik organayzerlash ishlab chiqish va to'ldirish;
- krossvordlar tuzish va yechish;
- prezentatsiya va videoroliklar tayyorlash hamda mustaqil ish jarayonida keng qo'llash va h.k.

V. Ta`lim natijalari/kasbiy kompetensiyalari.

UK 1 1 . Abstrakt fikr yuritish, xodisalarni tahlil va sintez qilish qobiliyatiga ega bo'lish;

UK 2. Dunyoqarashni shakllantirish uchun falsafiy bilimlarning asoslaridan foydalanish qobiliyati;

UK 3. Nostandart vaziyatlarda harakat qilish qobiliyati, qabul qilingan qarorlar uchun ijtimoiy va ahloqiy javobgarlikni olishga tayyorlik;

UK 4. O'z-o'zini rivojlantirishga, anglashga, o'qishga, ijodiy salohiyatdan foydalanishga tayyorlik;

UK 5. Favquloddagi vaziyatlarda birinchi tibbiy yordam texnikasini, himoya usullarini qo'llashga tayyorgalik.

UKK 1 2 . Kasbiy faoliyatning standart vazifalarini axborot, bibliografik manbalar, biotibbiyot terminologiyasi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va axborot xavfsizligining asosiy talablarini hisobga olgan holda hal qilishga tayyorlik;

UK 1 . Abstrakt fikr yuritish, xodisalarni tahlil va sintez qilish qobiliyatiga ega bo'lish;

UK 2. Dunyoqarashni shakllantirish uchun falsafiy bilimlarning asoslaridan foydalanish qobiliyati;

UK 3. Nostandart vaziyatlarda harakat qilish qobiliyati, qabul qilingan qarorlar uchun ijtimoiy va ahloqiy javobgarlikni olishga tayyorlik;

UK 4. O'z-o'zini rivojlantirishga, anglashga, o'qishga, ijodiy salohiyatdan foydalanishga tayyorlik;

UKK 1 2 . Kasbiy faoliyatning standart vazifalarini axborot, bibliografik manbalar, biotibbiyot terminologiyasi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va axborot xavfsizligining asosiy talablarini hisobga olgan holda hal qilishga tayyorlik;

UKK 2. Professional faoliyatdagi muammolarni hal qilish uchun og'zaki va yozma ravishda rus va xorijiy tillarda muloqot qilishga tayyorlik;

UKK 3. Tibbiy xujjatlarni yuritishga tayyorgalik;

UKK 4. Kasbiy muammolarni hal qilishda dori vositalarini va ularning kombinatsiyalarini tibbiy maqsadlarda ishlatishga tayyorlik;

UKK 5. Tibbiy yordam ko'rsatishda ko'zda tutilgan tibbiy asboblardan foydalanishga tayyorlik.

Izox:

1 UK- umumiy kompetensiya

2 UKK – umumiy kasbiy kompetensiya.

VI. Ta`lim texnologiyalari va metodlari.

- ma`ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;
- tezkor savol-javoblar;
- guruxlarda ishlash;

- jamoa bo`lib ishlash;
- taqdimotlar tayyorlash

VII. Kreditlarni olish uchun talablar.

Umumiy xirurgiy fani bo'yicha baholash mezonlari haqidagi ma'lumot modul bo'yicha birinchi mashg'ulotda talabalarga e'lon qilinadi.

Talabalarning fan bo'yicha o'zlashtirish darajasining Davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlari o'tkaziladi: joriy nazorat (JN); yakuniy nazorat (YAN).

Fan bo'yicha talabaniy semestr (o'quv yili) davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi 100 ballik tizimda baholanadi va baholash turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi.

No.	Baxolash turi	Maksimal ball	Kredit soni
1.	Auditoriyadagi o'quv mashg'ulotlarni baxolash (JN)	100	6
2.	Yakuniy nazorat (YAN)	100	0
	JAMI	100	6

Modulga ajratilgan 6 kreditni talaba JN davomida yig'adi.

JORIY NAZORAT (JN) JNda talabaniy modul mavzulari bo'yicha bilim, amaliy ko'nikma va kompetensiyalarni egallash darajasini aniqlash va baholab borish ko'zda tutiladi. Umumiy jarroxlik moduli bo'yicha JN og'zaki, o'rgatuvchi-nazorat testlari, tarqatma materiallari bilan ishlash, vaziyatli masalalar, mulyaj va fantomlarda ishlash ma'lumotlarini o'rganish, uyga berilgan vazifalarni tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkaziladi.

Baholashda talabaniy bilim darajasi, amaliy mashg'ulot materiallarini o'zlashtirishi, nazariy material muhokamasida va ta'limning interaktiv usullarida ishtirokining faollik darajasi, shuningdek, amaliy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish darajasi, kompetensiyalarni egallash (ya'ni nazariy, analitik va amaliy yondoshuvlar) hisobga olinadi. Talabalar fan bo'yicha 100 ballik tizimda baxolanadi. JN kafedrada og'zaki so'rov (60%) va masofaviy ta'lim platformasida test (40%) shakllarida o'tkaziladi. Har bir mashg'ulotda barcha talabalar baholanishi shart va o'qituvchi tomonidan talabaniy JN og'zaki so'rov shaklidan olgan bali shu kuni o'zida platformaga qo'yiladi.

Talaba xar bir bo'limdan belgilangan kreditlarni to'plagan keyingina

yakuniy nazoratga kiritiladi.

Modul bo'yicha talaba reytingi quyidagicha aniqlanadi:

Ball	ECTS Baho	ECTS ning ta'rifi		Baho	Ta'rifi
86-100	A	"a'lo" - a'lo natija, minimal hatoliklar bilan	<p>modul dasturining barcha bo'limlari bo'yicha tizimli, to'la va chuqur bilimga ega bo'lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi;</p> <p>terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o'z o'rnida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to'g'ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi;</p> <p>muammoli savollarni aniqlashi, o'z qarashlarini ilmiy-amaliy tilda asoslab bera olishi;</p> <p>modulning tayanch tushunchalarini bilishi va uni qisqa vaqt ichida ilmiy va amaliy masalalarni yechishda samarali qo'llay olishi;</p> <p>nostandart vaziyatlarda muammolarni mustaqil va ijodiy hal qila olish qobiliyatini ko'rsata olishi;</p> <p>amaliy ko'nikmalarni mustaqil ravishda to'liq bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetensiyalarni to'liq egallashi;</p> <p>amaliy masalalarni qisqa, asoslangan va ratsional ravishda hal etishi;</p> <p>modul dasturida tavsiya etilgan asosiy va qo'shimcha adabiyotlarni</p>	5	a'lo

Ball	ECTS Baho	ECTS ning ta' rifi		Baho	Ta' rifi
			<p>to'liq va chuqur o'zlashtirishi;</p> <p>modul bo' yicha nazariyalar, konsepsiyalar va yo' nalishlar mohiyatini anglash, ularga tanqidiy baho berish va boshqa modullar ilmiy yutuqlarini qo'llay olishi;</p> <p>nazariy va amaliy mashg' ulotlarda butun semestr mobaynida ijodiy vamustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo' lishi, vazifalarni bajarishda yuqori madaniyat darajasiga ega bo' lishi lozim;</p>		
81-85	B	"juda yaxshi" - o'rtadan yuqori natija, ayrim hatoliklar bilan	<p>modul dasturining barcha bo'limlari bo' yicha tizimli, to' la va chuqur bilimga ega bo' lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi;</p> <p>terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o'z o' rnida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to' g' ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi;</p> <p>o'z fikrini isbotlashda yoki boshqa nazariy materialni bayon qilishda yuzaga kelgan noaniqliklarni mustaqil bartaraf eta olishi;</p> <p>modulning tayanch tushunchalarini bilishi, qisqa vaqt ichida ilmiy va kasbiy vazifalarni qo'yish hamda hal qilishda undan unumli foydalanishi;</p>	4	yaxshi

Ball	ECTS Baho	ECTS ning ta' rifi		Baho	Ta' rifi
			<p>standard vaziyatlarda muammolarni o'quv dasturi doirasida mustaqil hal qila olishi;</p> <p>amaliy ko'nikmalarni mustaqil ravishda to'liq bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetensiyalarni to'liq egallashi;</p> <p>amaliy mashg'ulotlarda normativ-huquqiy hujjatlarni yaxshi bilishini namoyish qilishi, ushbu bilimlarni yangi vaziyatlarda to'g'ri (lekin doim ham ratsional emas) qo'llay olishi, bajarilgan ish natijalarini yetarli darajada rasmiylashtira olmaganligi;</p> <p>modul dasturida tavsiya qilinganasosiy adabiyotlarni o'zlashtirishi;</p> <p>o'rganilayotgan modul bo'yicha nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglay olishi va ularga tanqidiy baho berishi;</p> <p>nazariy va amaliy mashg'ulotlarda butun semestr mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo'lishi, vazifalarni bajarishda juda yaxshi madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;</p>		
71-80	C	"yaxshi" - o'rtacha	modul dasturining barcha bo'limlari		

Ball	ECTS Baho	ECTS ning ta'rifi		Baho	Ta' rifi
		natija, sezilarli hatoliklar bilan	<p>bo'yicha tizimli, to'la va chuqur bilimga ega bo'lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi, ammo bir oz kamchiliklar bilan;</p> <p>terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o'z o'rnida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to'g'ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi;</p> <p>o'z fikrini isbotlashda yoki boshqa nazariy materialni bayon qilishda yuzaga kelgan noaniqliklarni mustaqil bartaraf eta olishi;</p> <p>modulning tayanch tushunchalarini bilishi, qisqa vaqt ichida ilmiy va kasbiy vazifalarni qo'yish hamda hal qilishda undan unumli foydalanishi;</p> <p>standart vaziyatlarda muammolarni o'quv dasturi doirasida mustaqil hal qila olishi;</p> <p>amaliy ko'nikmalarni mustaqil ravishda bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetensiyalarni egallashi, ammo bir oz kamchiliklar bilan;</p> <p>amaliy mashg'ulotlarda normativ-huquqiy hujjatlarni yaxshi bilishini namoyish qilishi, ushbu bilimlarni yangi vaziyatlarda to'g'ri (lekin doim ham ratsional emas) qo'llay olishi, bajarilgan ish natijalarini yetarli</p>		

Ball	ECTS Baho	ECTS ning ta' rifi		Baho	Ta' rifi
			<p>darajada rasmiylashtira olmaganligi; modul dasturida tavsiya qilingan asosiy adabiyotlarni o'zlashtirishi; o'rganilayotgan modul bo'yicha nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglay olishi va ularga tanqidiy baho berishi; nazariy va amaliy mashg'ulotlarda butun semestr mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhlimuhokamalarda faol bo'lishi, vazifalarni bajarishda yaxshi darajaga ega bo'lishi lozim;</p>		
60-70	D	"qoni-qarli" - sust natija, qo'pol kamchiliklar bilan	<p>davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida yetarli bilim hajmiga ega bo'lishi; terminologiyani ishlatishi, savollarga javoblarni to'g'ri bayon qilishi, lekin bunda ayrim xatolarga yo'l qo'yishi; javob berishga yoki ayrim maxsus ko'nikmalarni namoyish qilishda qiynalganda, modul bo'yicha asosiy tushunchaga ega ekanligini namoyish etishi; amaliy ko'nikmalarni (sifati va belgilangan soni jihatdan) mustaqil ammo hatoliklar bilan to'liq bajara olishi; kompetensiyalarni mustaqil, ammo hatoliklar bilan egallashi;</p>	3	Qoni qarli

Ball	ECTS Baho	ECTS ning ta' rifi		Baho	Ta' rifi
			<p>modulining umumiy tushunchalari bo'yicha qisman bilimga ega bo'lishi va uni standart (namunaviy) vaziyatlarni hal etishda qo'llay olishi;</p> <p>pedagog xodim yordami bilan standart vaziyatlarni hal eta olishi;</p> <p>o'qilayotgan modul bo'yicha asosiy nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglashi, ularga baho bera olishi;</p> <p>nazariy va amaliy mashg'ulotlarda pedagog xodim rahbarligida qatnashishi, vazifalarni bajarishda yetarli madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;</p>		
55-59	E	"o'rta" - minimal natijaga teng	<p>davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida qoniqarli bilim hajmiga ega bo'lishi;</p> <p>terminologiyani ishlatishi, savollarga javoblarni to'g'ri bayon qilishi, lekin bunda ayrim qo'pol xatolarga yo'l qo'yishi;</p> <p>javob berishga yoki ayrim maxsus ko'nikmalarni namoyish qilishda qiynalganda va hatolarga yo'l qo'yganda, modul bo'yicha asosiy tushunchaga ega ekanligini namoyish etishi;</p>		

Ball	ECTS Baho	ECTS ning ta' rifi		Baho	Ta' rifi
			<p>amaliy ko'nikmalarni (sifati va belgilangan soni jihatdan) mustaqil emas va hatoliklar bilan to'liq bajara olishi;</p> <p>kompetensiyalarni mustaqil emas vahatoliklar bilan egallashi;</p> <p>modulining umumiy tushunchalari bo'yicha qisman bilimga ega bo'lishi va uni standard (namunaviy) vaziyatlarni hal etishda qo'llay olishi;</p> <p>pedagog xodim yordami bilan standart vaziyatlarni hal eta olishi;</p> <p>o'qilayotgan modul bo'yicha asosiy nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglashi, ularga baho bera olishi;</p> <p>nazariy va amaliy mashg'ulotlardapedagog xodim rahbarligida qatnashishi, vazifalarni bajarishda yetarli madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;</p>		
31-54	FX	<p>"qoniqarsiz" - minimal darajadagi bilim-larni olish uchun qo'shimcha mustaqil o'zlashtirishi zarur</p>	<p>davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida faqat ayrim fragmentar bilimlarga ega bo'lsa;</p> <p>ilmiy terminlarni ishlata olmasa yoki javob berishda jiddiy mantiqiy xatolarga yo'l qo'ysa;</p> <p>nazariy va amaliy mashg'ulotlarda passiv qatnashib, vazifalar bajarish madaniyatining past darajasiga ega</p>	2	Qoniqarsiz

Ball	ECTS Baho	ECTS ning ta'rifi		Baho	Ta' rifi
			bo'lsa; amaliy ko'nikmalarga va kompetensiyalarga ega bo'lmasa, o'z xatolarini hatto pedagog xodim tavsiyalari yordamida ham to'g'rilay olmasa.		
0-30	F	"mutloq qoniqarsiz" to'liq qayta o'zlash-tirishi lozim	davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida faqat ayrim fragmentar bilimlarga ega bo'lsa; terminlarni ishlata olmasa yoki javob berishda jiddiy va qo'pol mantiqiy xatolarga yo'l qo'ysa yoki umuman javob bermasa; nazariy va amaliy mashg'ulotlarda passiv qatnashib, vazifalar bajarish madaniyatining past darajasiga ega bo'lsa yoki umuman bajarmasa; amaliy ko'nikmalarga va kompetensiyalarga ega bo'lmasa, o'z xatolarini hatto pedagog xodim tavsiyalari yordamida ham to'g'rilay olmasa.		

YAKUNIY NAZORAT (YAN)

YAN 6-semestr yakunida o'tkaziladi. Yakuniy nazorat kafedrada va simulytsion markazida OSCE shakida utkaziladi. Talaba YAN nazoratga qadar TMI bo'yicha bajargan ishini PDF variantini masofaviy ta'lim platformasiga joylashtiradi hamda qog'oz variantini o'qituvchisiga topshiradi. Talaba TMI bo'yicha bajargan ishini YAN kuni ximoya qiladi. YAN modul yakunida kafedrada og'zaki so'rov

(60%) va masofaviy ta'lim platformasida test (40%) shaklida o'tkaziladi. Bunda talabalarning kompetensiyalarni, amaliy ko'nikmalarni egallash darajasi va nazariy bilimlari tekshiriladi.

Al-Farobiy nomidagi Qozog'iston milliy universitetining (Qozog'iston, #87) Umumiy tibbiyot fakulteti jarrohlik kafedrası Umumiy xirurgiya fanidan o'quv dasturidan quyidagi ma'ruza mashg'ulot mavzulari qo'shimcha sifatida kiritildi:

- Shikastlanish asoslari. Qorin bo'shlig'ining shikastlanishi. Jigar va taloqning shikastlanishi. Ko'krak qafasining shikastlanishi. Yurak va o'pkaning shikastlanishi.
- Kuyish va sovuq urish. Kuyish kasalligi. Kuyish shoki.
- Oyoqlar tomirlarining turli kasalliklarini (ateroskleroz, endoarteriit, teri osti venalarining varikoz kengayishi, tromboflebit, flebit) tashxislash va davolashning zamonaviy usullari. Rentgenendovaskulyar xirurgiya asoslari

Lomonosov nomidagi davlat universitetining (Moskva, Rossiya, #87) fundamental tibbiyot fakulteti jarrohlik kafedrası Umumiy xirurgiya fanidan o'quv dasturidan quyidagi amaliy mashg'ulot mavzulari qo'shimcha sifatida kiritildi:

- Xirurgiyada kichik invaziv aralashuvlar
- Kam invaziv kardioxirurgiya
- Endovideojarrohlik operatsiyalari: NOTES, SILS
- Zamonaviy jaroxat qoplamalari

Yonsei University nomidagi universitetining (Seoul, South Korea, #56) tibbiyot fakulteti jarrohlik kafedrası Umumiy xirurgiya fanidan o'quv dasturidan quyidagi mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar mavzulari qo'shimcha sifatida kiritildi:

- Xirurgiyada kichik invaziv aralashuvlar
- Xirurgiyada to'qimalarni regeneratsiya qilish texnologiyalari
- Bariatrik xirurgiya
- Xirurgiyada robototexnika
- Plastik, estetik va rekonstruktiv xirurgiya asoslari

VII. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari

1. Asosiy adabiyotlar

1. Охунов А.О. Умумий хирургия. Дарслик.—Тошкент. NISIM нашриёти. 2019 й. (электрон).

2. Арипов У.А., Каримов Ш.И. Умумий хирургия. Дарслик. –Тошкент. Абу Али Ибн Сино. 2008 й.(лотин).

3. В. К. Гостищев. Общая хирургия. Учебник. 2016 г.

2. Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. Бабаджанов Б.Д., Охунов А.О. Антисептика. Сценарии для проведения практических занятий с использованием современных педагогических технологий составленные на основе единой методической систем. Методическая рекомендация. – Ташкент. "Focus Print". 2012 г.

2. Бабаджанов Б.Д., Охунов А.О., Шарипов Ю.Ю. /Неспецифическая хирургическая инфекция. Электронное учебное пособие на узбекском, русском и английском языках. – Ташкент. "Focus Print". 2013 г.

3. F. Charles Brunicaudi. Schwartz’s principles of surgery. 10th edition. E-Book. -USA. McGraw Hill Professional. 2015 y.

4. S. Das. A manual clinical surgery. Special investigations and differential diagnosis. 11th edition. eBook. – Kolkata. McGraw-Hill Education. 2014 y.

5. Norman Williams. Bailey Loves. Short practice of surgery. 26th edition. Medical textbook. - London. CRC Press. 2012 y.

6. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining xirurgiya fanidan ishchi o‘quv dasturi

<https://www.fbm.msu.ru/education/traineeship/pdf/surg-o-prog.pdf>

3. Qo‘shimcha xorijiy adabiyotlar:

1. Janice L Hinkle. Textbook of Medical-Surgical Nursing. Дарслик. Amazon.com Services LLC. 2021

2. Courtney M. Townsend Jr. Textbook of Surgery: The Biological Basis of Modern Surgical Practice 21st Edition. Дарслик. Amazon.com Services LLC. 2019

3. Michael F. Lubin. Medical Management of the Surgical Patient: A Textbook of Perioperative Medicine 5th Edition. Cambridge University Press. 2020

4. Кузнецов Н.А. Общая хирургия. Москва. «Медицина». 2018

5. Глухов, А. А. Основы ухода за хирургическими больными - Москва. ГЭОТАР-Медиа, 2017.

4. Kafedra professor-ukituvchilari tomonidan yaratilgan o‘quv adabiyotlar

1. Мусашайхов Х.Т., Дадабоев О.Т., Маткаримов Б.Х., “Кровотечения” Ўқув қўлланма. Тошкент. 2018 й.

2. Мусашайхов Х.Т., Василевский Э.А., Маткаримов Б.Х., “Основы трансфузиологии” Ўқув қўлланма. Тошкент. 2018 й.

3. Мусашайхов Х.Т., Василевский Э.А., Дадабоев О.Т., Маткаримов Б.Х., Икрамова Ф.Д.. “Актуальные вопросы практической хирургии” Часть 1 (229 стр.) и Часть 2(241 стр.). Ўқув қўлланма. Тошкент.2020 й.
4. Салахидинов С.З., Икрамова Ф.Д., Усмонов Х.К. “Жаррохатлар”. Ўқув қўлланма. Тошкент.2020 й

5. Kafedra mavjud bulgan elektron kitoblar

1. С.В.Петров. Общая хирургия. 2017 год.-569 стр.
2. Н.М.Матянин. А.А.Ольманецкий, А.М.Глузман. Симптомы и синдромы в хирургии, Киев- 2005 г-192 стр.
3. Ю.Л.Шевченко. Частная хирургия. Санкт-Петербург, 2009 г -501 стр.
4. В.Г.Аритархов, Ю.Б. Кириллов, С.В.Брюнин. Краткие лекции по факультетской хирургии. Рязань, 2005-96 стр.
5. В.С.Савельев. Руководство по неотложной хирургии. Москва, 2006 год- 326 стр.
6. М.И.Кузин. Хирургические болезни. Москва, 2011 год-640 стр.
7. Г.Л.Ратнер. Советы молодому хирургу. Самара, 2013 год.119 стр.
8. А.Мелешевич. Панариций и флегмона кисти. Гродно, 2002 год – 186 стр.
9. Муратов С.Н. Хирургические болезни с уходом за больными. Москва, 2018 год, 242 стр.
- 10.П.Н.Зубаров Практикум по курсу общей хирургии. Санкт- Петербург, 2004 год.- 241 стр.
- 11.Энциклопедия клинического обследования больного. Москва, 2004 год – 326 стр.
- 12.Справочник практического врача. Москва,2002 год. 628 стр.
- 13.А.Н.Максименко. Хирургическая анатомия живота. Москва,2004 год. 326 стр.

6.Internet saytlari:

1. Germaniyaning “Lecturio GmbH” meditsina sayti
2. Al-Farobiy nomidagi Qozog’iston milliy universiteti
<https://univision.kz/edu-program/19984.html#disciplines>
3. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti
www.fbm.msu.ru/education/traineeship/pdf/surg-o-prog.pdf
4. Cambridge university digital library
<https://libguides.cam.ac.uk/az/databases>
5. YONSEI University, Seoul, Korea
https://www.yonsei.ac.kr/en_sc/1849/subview.do
6. www.tma.uz
7. www.zyonet.uz

8. www.mediasphera.ru
9. www.medmore.ru
10. www.medilexicom.com
11. www.encicloperdia.com

Mazkur Fan dasturi Andijon davlat tibbiyot instituti tomonidan ishlab chiqilgan va OTM Kengashining 2025-yil “__27__” 08_ _1_ -sonli yig‘ilish bayonnomasi bilan tasdiqdangan.	
Fan/modul uchun mas`ullar:	
J.M.Butaboev	- Umumiy jarroxlik va transplantologiya kafedrası dotsenti
Sh.Sh.Mansurov	- Umumiy jarroxlik va transplantologiya kafedrası assistenti
Taqrizchi:	
U.D.Usmanov	- ADTI Jarroxlik kafedrası dotsenti